

**DAVLAT BUDJETIDAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM  
TASHKILOTLARIGA AJRATILAYOTGAN MABLAG'LAR TAHLILI**

*I. M. Shodiyorov, mustaqil izlanuvchi*

*Sh. U. Mamanov, mustaqil izlanuvchi*

*Annotatsiya. Tezida davlat budjetidan maktabgacha va umumiy ta'limni moliyalashtirish uchun ajratilayotgan xarajatlarning ulushi, uning YaIMga nisbati dinamik tahlili qilingan.*

*Kalit so'zlar: davlat budjeti, YaIM, maktabgacha ta'lim, umumiy talim, ta'lim xarajatlari.*

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining barcha sohalarini tizimli ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan ulkan hajmdagi budjet mablag'lari yo'naltirilmoqda. Shuningdek, har bir sohani kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari ham amalga oshirilib kelinmoqda. Bunda iqtisodiy sohadan tortib, siyosiy sohalarni ham takomillashtirish nazarda tutilgan. Ajratilgan budjet mablag'larining o'z manziliga to'g'ri yetib borishi alohida tartibda nazoratga olinishini taqozo etadi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimi ijtimoiy sohaning bir bo'g'ini ekanligini qayd etsak, ta'lim muassasalari xarajatlariga yo'naltirilayotgan budjet mablag'lari salmoqli ulushga ega. XXI asrning kuchli raqobat sharoitida salmoqli natijalarni qayd etish ko'p jihatdan ta'limning natijalariga bog'liq bo'lib qolmoqda. Ta'lim tizimini moliyalashtirish asosan davlat va nodavlat moliyaviy manbalar hisobiga amalga oshiriladi. Moliyalashtirishning davlat manbalari tarkibiga:

- respublika va mahalliy budjet mablag'lari;
- budjetdan tashqari davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari kiradi.

Moliyalashtirishning nodavlat manbalari tarkibiga esa:

- ta'lim muassasalarining tadbirkorlik faoliyatidan keladigan

daromadlar;

- xorijiy kreditlar va grantlar;

- ota-onalarning badallari, pulli ta'limdan tushadigan qo'shimcha mablag'lar;

- homiylik va xayriya mablag'lari;

- boshqa mablag'lar.


Biz esa quyida maktabgacha va umumiy ta'lim uchun davlat budjetidan ajratilayotgan mablag'larning tahlili yuzasidan fikrlarimizni bayon qilamiz. Ma'lumki, Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan 2018-yildan buyon "Fuqarolar uchun budjet" nashri e'lon qilib kelinmoqda. Ushbu nashr ma'lumotlari asosida xarajatlar tahlilini amalga oshiramiz.

**Maktabgacha va umumiy ta'lim uchun davlat budjetidan ajratilayotgan xarajatlar dinamikasi, mlrd. so'm**

<b>Xarajat turlari</b>	<b>2019-yil</b>	<b>2020-yil</b>	<b>2021-yil</b>	<b>2022-yil</b>	<b>2023-yil</b>	<b>2024-yil</b>
<b>Davlat budjeti xarajatlari</b>	<b>118 008,7</b>	<b>144 142,7</b>	<b>165 879,0</b>	<b>236 692,0</b>	<b>257 734,0</b>	<b>312 921,0</b>
Maktabgacha ta'lim	5 314,4	4 895,5	6 459,2	10 151,9	10 993,0	13 507,0
Davlat budjeti xarajataridagi ulushi, foizda	4,5	3,4	3,9	4,3	4,3	4,3
Umumiy o'rta ta'lim	19 499,6	21 860,4	23 802,3	33 138,1	36 979,0	42 894,0
Davlat budjeti xarajataridagi ulushi, foizda	16,5	15,2	14,3	14,0	14,3	13,7

*Manba: Fuqarolar uchun budjet nashri:2019,2020,2022-yillar ijrosi, 2021,2023,2024-yillar rejasi*

Jadval ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak, 2020-yilda xarajatlar 2019-yilga nisbatan miqdor jihatdan kamayganini ko'rishimiz mumkin. 2020-yilda maktabgacha ta'lim xarajatlari 5 166,2 mlrd so'm miqdordagi tasdiqlangan parametrdagi 4 895,5 mlrd so'mni tashkil etdi. Karantin kiritilishi hamda bolalar bog'chalarining faoliyatini bir necha oyga to'xtatilishi bois, MTT xarajatlari boshqa sohalar kabi maqbullashtirildi. Buning natijasida, aniqlashtirilgan reja 4 984,6 mlrd so'mni tashkil etdi va aniqlashtirilgan rejaga nisbatan 98,2 foizga ijrosi ta'minlangan.




**1-rasm. Maktabgacha va umumiy ta'lim uchun davlat budjetidan ajratilayotgan xarajatlardagi ulushi, foizda<sup>1</sup>**

Sohalar bo'yicha xarajatlarni davlat budjeti xarajatlardagi ulushini ko'radigan bo'lsak, eng baland ulushlar 2019-yilga to'g'ri kelib, maktabgacha ta'lim xarajatlari 4,5 foizga va umumiy ta'lim xarajatlari 16,5 foiz ulushga ega bo'lgan. Keyingi yillarda umumiy ta'lim xarajatlari miqdor jihatdan oshgan bo'lsa-da, ulush jihatdan kamaygan. Maktabgacha ta'lim sohasida esa 2020-yildagi maqbullashtirishlarning hisobiga miqdor va ulush jihatidan kamayishni inobatga olmaganda, keyingi yillarda miqdor jihatdan o'sish ulush jihatdan deyarli o'zgarish yo'qligini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu miqdoriy va ulush orasidagi bog'lanishni yillik inflatsiyaning balandligi va davlat xususiy sherikchilik imkoniyatlarining kengayganligi izohlashi mumkin.

<sup>1</sup> Mualliflar tomonidan ishlab chiqildi  
[www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)



**2-rasm. Maktabgacha va umumiy ta'lim uchun davlat budjetidan ajratilayotgan xarajatlardagi va YaIMdagi ulushi, foizda<sup>2</sup>**

Ushbu diagramma ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin ushbu sohalardagi xarajatlarning YaIMdagi ulushi ham davlat budjetidagi ulushi kabi katta tebranishlarga ega emas.

Umumiy xulosa qiladigan bo'lsak, maktabgacha va umumiy ta'lim uchun ajratilayotgan xarajatlarning 2019-2024-yillarda davlat budjeti xarajatlaridagi ulushi mos ravishda 1,2 punkt va 2,8 punkt koridorida tebranmoqda. Umumiy ta'lim uchun ajratilgan xarajatlarning ulushi 2024-yilda davlat budjeti xarajatlariga nisbatan 13,7 foizga rejalashtirilgan bo'lib oxirgi 5 yildagi eng past ko'rsatkichni qayd qilmoqda. Ayni vaqtda esa ushbu sohalarga sarflanayotgan mablag'larning samaradorligini aniqlash ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, bu ham alohida ilmiy tadqiqot jarayonlarini olib borishni talab qiladi.

### **Foydalanilgan adanoiyotlar ro'yxati**

1. Fuqarola uchun budjet nashrining 2019-2024-yildagi ma'lumotlari.
2. imv.uz
3. lex.uz
4. stat.uz

<sup>2 2</sup> Mualliflar tomonidan ishlab chiqildi  
[www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)